Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, ularning iqtisodiy samaradorligi va raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Chakana bank xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi, raqamli bank texnologiyalarining rivojlanishi va aholining tezkor hamda qulay moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojining ortishi bank xizmatlarini modernizatsiya qilishni talab etayotgani asoslangan. Shuningdek, multivalyutali bank kartalarini keng joriy qilish, chakana bank mahsulotlarini strategik va odatiy segmentlarga ajratish, ularni raqamli sotuv kanallari orqali taklif etish hamda mikroqarzlarini ekspress kreditlash usulida ajratishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarida risk–daromad–sifat muvozanatini ta‘minlash, raqamli skoring va zamonaviy risk-menejment mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: chakana bank xizmatlari, multivalyutali bank kartalari, ekspress kreditlash, mikroqarzarlar, risk–daromad–sifat muvozanati, chakana kreditlash, mobil banking, internet-banking, fintex, moliyaviy inklyuzivlik, tijorat banklari, raqamli skoring, bank xizmatlari samaradorligi.

Abstract. This article examines the modern trends in the development of retail banking services in the commercial banks of Uzbekistan, their economic efficiency, and the issues of improvement under the conditions of digital transformation. The study substantiates that the intensification of competition in the retail banking services market, the rapid development of digital banking technologies, and the growing demand of the population for fast and convenient financial services necessitate the modernization of banking services. Furthermore, the economic significance of the widespread introduction of multicurrency bank cards, the classification of retail banking products into strategic and conventional segments, their promotion through digital sales channels, and the provision of microloans through express lending mechanisms is analyzed. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed for ensuring the risk–return–quality balance in services provided to individuals, as well as for the implementation of digital scoring systems and modern risk-management mechanisms.

Key words: retail banking services, multicurrency bank cards, express lending, microloans, risk–return–quality balance, retail lending, mobile banking, internet banking, fintech, financial inclusion, commercial banks, digital scoring, banking service efficiency.

Аннотация. В статье исследованы современные тенденции развития розничных банковских услуг в коммерческих банках Узбекистана, их экономическая эффективность, а также вопросы совершенствования в условиях цифровой трансформации. Обосновано, что усиление конкуренции на рынке розничных банковских услуг, развитие цифровых банковских технологий и рост потребности населения в быстрых и удобных финансовых услугах требуют модернизации банковских услуг. Также проанализировано экономическое значение широкого внедрения мультивалютных банковских карт, разделения розничных банковских продуктов на стратегические и традиционные сегменты, их предложения через цифровые каналы продаж, а также предоставления микрозаймов методом экспресс-кредитования. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения по обеспечению баланса «риск–доходность–качество» в процессе обслуживания физических лиц, внедрению цифрового скоринга и современных механизмов риск-менеджмента.

Ключевые слова: розничные банковские услуги, мультивалютные банковские карты, экспресс-кредитование, микрозаймы, баланс «риск–доходность–качество», розничное кредитование, мобильный банкинг, интернет-банкинг, финтех, финансовая инклюзивность, коммерческие банки, цифровой скоринг, эффективность банковских услуг.



KIRISH

Bugungi kunda bank tizimida raqobatning kuchayishi, moliyaviy xizmatlar bozorining raqamlashtirilishi hamda aholi va biznes subyektlarining bank xizmatlariga bo'lgan talabining ortib borishi tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishni strategik yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida mobil banking, internet-banking, masofaviy to'lov tizimlari, elektron hamyonlar va fintex xizmatlarining keng joriy etilishi banklarning chakana xizmatlar segmentidagi faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Shu jihatdan tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish va ularning samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy asosda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini isloh qilish, bank xizmatlarini ommalashtirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tijorat banklari oldiga chakana xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish vazifasini qo'yarmoqda. Bunda bank xizmatlarining tezkorligi, qulayligi, xavfsizligi va mijozlarga yo'naltirilganligini ta'minlash muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim tijorat banklarida chakana xizmatlar infratuzilmasini yanada rivojlantirish, xizmatlar assortimentini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish ko'lamini oshirish hamda mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini oshirmoqda.

Xalqaro amaliyotda chakana bank xizmatlari banklarning asosiy daromad manbalaridan biri sifatida qaralib, mijozlar bazasini kengaytirish, bank resurslarini ko'paytirish va banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasida sun'iy intellekt, big data, biometrik identifikatsiya va fintex yechimlari asosida chakana xizmatlarni transformatsiya qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Mazkur tajribalarni O'zbekiston bank amaliyotiga moslashtirish va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, tijorat banklarida chakana bank xizmatlari samaradorligini oshirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijozlar sodiqligini oshirish hamda bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash va amaliy takliflar ishlab chiqish mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarda asosan chakana bank xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, ularni tashkil etish mexanizmlari, raqamli transformatsiya jarayonlari, mijozlarga yo'naltirilgan bank xizmatlari hamda banklarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Peter S. Rose, Sylvia C. Hudgins (2019), Frederic S. Mishkin (2022), Timothy W. Koch va S. Scott MacDonald (2014)larning ilmiy ishlarida tijorat banklari faoliyatini diversifikatsiyalash, chakana xizmatlarning bank daromadlilikiga ta'siri hamda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning nazariy jihatlarini tadqiq etilgan. Ularning fikricha, chakana bank xizmatlari banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy segmentlardan biri hisoblanadi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari Brett King (2018) ning ilmiy qarashlarida alohida o'rin egallaydi. U bank xizmatlari kelajagi asosan mobil texnologiyalar, sun'iy intellekt va fintex platformalari bilan bog'liq ekanligini asoslab beradi. Muallifning ta'kidlashicha, an'anaviy bank xizmatlaridan raqamli bank ekotizimiga o'tish chakana xizmatlar samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Chakana bank xizmatlari sifati va mijozlar ehtiyojlarini qondirish masalalari marketing nazariyasi vakillari Philip Kotler hamda Kevin Lane Keller (2024) tomonidan xizmatlar marketingi nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, bank xizmatlari sifatini oshirishda mijozlarga individual yondashuv, xizmatlarning qulayligi va tezkorligi asosiy omillar hisoblanadi. MDH mamlakatlari olimlaridan Oleg Lavrushin (2015), Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P. (2016) larning ilmiy ishlarida tijorat banklarida chakana operatsiyalarni tashkil etish, depozit va kredit xizmatlarini rivojlantirish, bank risklarini boshqarish hamda masofaviy bank xizmatlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda bank xizmatlarini modernizatsiya qilish orqali banklarning raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi qayd etilgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan Abdullaeva Sh.Z., Xudayberganova Z.Z. (2021), Mamadiyarov Z.T. (2018), Xudayarova X.A. (2019) va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston tijorat banklarida chakana xizmatlarni rivojlantirish, bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini kuchaytirish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish hamda moliyaviy inklyuzivlikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ishlarda bank xizmatlarini raqamlashtirish mamlakat bank tizimining



transformatsiyasida muhim yo'nalish ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda fintex kompaniyalari faoliyatining kengayishi, elektron to'lov tizimlari va mobil ilovalar asosida ko'rsatilayotgan xizmatlarning ommalashuvi natijasida tijorat banklari faoliyatida yangi raqobat muhiti shakllanayotgani qayd etilmoqda. Shu bois chakana bank xizmatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, mijozlar ehtiyojlarini segmentatsiya qilish va raqamli xizmatlar xavfsizligini ta'minlash muhim ilmiy yo'nalish sifatida baholanmoqda.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, ularning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash hamda raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu mavzuda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hisobotlari, statistik ma'lumotlar hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar materiallaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, guruhlash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, chakana bank xizmatlari samaradorligini baholashda raqamli transformatsiya va risk-menejment ko'rsatkichlari asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish, xususan, valyuta operatsiyalari bo'yicha tezkor va qulay to'lov instrumentlarini kengaytirish, chakana bank mahsulotlarini samarali segmentlash va sotish kanallarini diversifikatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish, mikroqarz ajratish jarayonlarida tezkor kreditlash amaliyotini keng joriy etish hamda aktiv operatsiyalarda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish banklarning chakana xizmatlar bozoridagi raqobatbardoshligi va daromadlilik darajasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur holat aholiga ko'rsatilayotgan chakana bank xizmatlari sifati, tezkorligi va ommabopligini oshirish, raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish kanallarini kengaytirish, ekspress kreditlash mexanizmlarini joriy etish hamda jismoniy shaxslar bilan bog'liq aktiv operatsiyalarda risk va daromad o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks ilmiy-amaliy yechimlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon bank amaliyotida raqamli to'lov xizmatlarining jadal rivojlanishi, xalqaro moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi hamda aholining xorijiy valyutada hisob-kitoblarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojining kuchayishi tijorat banklarida zamonaviy to'lov instrumentlarini joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishda valyuta operatsiyalarining tezkorligi, xavfsizligi va qulayligini ta'minlash bank xizmatlari sifatini baholovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, multivalyutali bank kartalarini keng joriy qilish zarurati ortib bormoqda.

An'anaviy valyuta operatsiyalarida jismoniy shaxslar alohida valyuta hisobvaraqlari ochishi, turli valyutadagi kartalardan foydalanishi yoki valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishi talab etiladi. Bu esa vaqt sarfi, qo'shimcha komissiya xarajatlari va operatsiya jarayonlarining murakkablashuviga olib keladi. Multivalyutali bank kartalari esa bir vaqtning o'zida bir nechta valyutada hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini berib, valyuta konvertatsiyasi bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish va operatsiyalarni avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xalqaro migratsiya, turizm, elektron tijorat va transchegaraviy onlayn xizmatlar hajmining o'sishi aholining xorijiy valyutada to'lovlarni tez va qulay amalga oshirishga bo'lgan talabini kuchaytirmoqda. Multivalyutali kartalar ushbu ehtiyojlarni qondirish orqali mijozlarga xorijda to'lovlarni amalga oshirish, internet orqali xalqaro xaridlarni bajarish hamda valyuta mablag'larini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Natijada mijozlar qoniqishi va bank xizmatlariga bo'lgan ishonch darajasi ortadi (1-jadval).

1-jadval. Multivalyutali bank kartalarga nisbatan yondashuvlar¹

Yondashuv	Asosiy e'tibor
Texnik yondashuv	Bir kartada bir nechta valyuta hisobvaraqlari
To'lov tizimi yondashuvi	Xalqaro to'lovlar va konvertatsiyani avtomatlashtirish
Iqtisodiy yondashuv	Tranzaksion xarajatlarni kamaytirish
Mijozga yo'naltirilgan yondashuv	Qulaylik va valyuta risklarini boshqarish

1 Muallif ishlanmasi



Ko'plab xorijiy tadqiqotlarda (ayniqsa Yevropa va Osiyo bank amaliyotida) multivalyutali kartalar to'lov vositasi emas, balki moliyaviy menejment instrumenti sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvda kartaning asosiy qiymati bir nechta valyutada mablag' saqlash imkoniyatida emas, balki qaysi valyutada to'lov qilish iqtisodiy jihatdan eng maqbul ekanligini avtomatik aniqlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Tijorat banklari uchun ham multivalyutali kartalarni joriy etish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Ushbu instrumentlar banklarning chakana xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirish, komissiyali daromadlar hajmini ko'paytirish, mijozlar bazasini kengaytirish hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, fintex kompaniyalari va raqamli to'lov tizimlari bilan raqobat sharoitida zamonaviy multivalyutali mahsulotlarni taklif qilish banklarning bozor pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, multivalyutali bank kartalarini keng joriy etish naqd pul aylanmasini qisqartirish, naqdsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish va valyuta operatsiyalarining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishda valyuta operatsiyalari samaradorligi, to'lovlar tezkorligi va mijozlar qoniqishini ta'minlash maqsadida UZS+USD, UZS+EUR va UZS+CNY valyutasida ishlovchi multivalyutali bank kartalarni keng joriy qilish pul muomalasi va bank xizmatlari transformatsiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur kartalar jismoniy shaxslarga bir vaqtning o'zida milliy va xorijiy valyutalarda hisob-kitob qilish imkonini berib, xalqaro moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining kuchayishi, mijozlar ehtiyojlari va iste'mol xulq-atvorining o'zgarishi tijorat banklaridan chakana bank xizmatlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. An'anaviy bank xizmatlari orqali yuqori daromadlilikni ta'minlash imkoniyatlari cheklanib borayotgan sharoitda bank mahsulotlarini strategik va odatiy mahsulotlarga ajratish hamda ularni turli sotuv kanallari orqali mijozlarga yetkazish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliyotda aksariyat tijorat banklarida bank mahsulotlarini yagona yondashuv asosida taklif qilish holatlari saqlanib qolmoqda. Natijada yuqori daromad keltiruvchi strategik mahsulotlar bilan ommaviy talabga ega odatiy mahsulotlar o'rtasidagi farq aniq belgilanmaganligi bank resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Strategik mahsulotlarga yuqori marjali kreditlar, investitsion va raqamli xizmatlar, premium bank xizmatlari kirsa, odatiy mahsulotlarga ommaviy depozit, to'lov va hisob-kitob xizmatlari kiradi. Ularni alohida segmentlash bankka har bir mahsulot bo'yicha maqsadli marketing strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi (2-jadval).


2-jadval. Bank mahsuloti turi va sotish kanali o'rtasidagi bog'liqlik²

Mahsulot turi	Samarali sotish kanallari	Daromadga ta'siri
Strategik mahsulotlar	Mobil ilova, bank xizmatlari markazlari, telemarketing, messengerlar	Yuqori marja, kross-sotuv
Odatiy mahsulotlar	Internet saytlar, mobil ilova, ofislar	Barqaror hajmli daromad

Bank mahsulotlarini sotish kanallarining cheklanganligi ham bank daromadlarining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy bank filiallari orqali xizmat ko'rsatish yuqori operatsion xarajatlarni talab qiladi va barcha mijozlar qatlamini qamrab olish imkonini bermaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mijozlar bank xizmatlaridan masofadan turib, tezkor va qulay foydalanishni talab etmoqda. Shu sababli bank xizmatlari ofisi va bank xizmatlari markazlari bilan bir qatorda mobil ilovalar, internet saytlari, telemarketing, ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar orqali xizmat ko'rsatish kanallarini kengaytirish zarurati ortib bormoqda.

Ayniqsa, raqamli kanallardan foydalanish bank xizmatlarini ommalashtirish, yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlar bilan doimiy kommunikatsiyani ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Mobil ilovalar va internet-banking orqali xizmat ko'rsatish operatsiyalarining tezkorligi va qulayligini oshirsa, ijtimoiy tarmoqlar hamda messengerlar marketing kommunikatsiyalarini kuchaytirish, mahsulotlarni targ'ib qilish va mijozlar fikrini tezkor o'rganish imkonini beradi. Telemarketing esa bank mahsulotlarini maqsadli segmentlarga taklif qilish orqali sotuv hajmini oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).


2 Muallif ishlanmasi

1-rasm. Bank mahsulotlarini sotish kanallari³

Bank mahsulotlarini strategik va odatiy mahsulotlarga ajratish hamda ularni ko'p kanalli sotuv tizimi orqali amalga oshirish bank daromadlarini diversifikatsiya qilish, komissiyali tushumlarni ko'paytirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkonini yaratadi. Bu esa banklarning chakana xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, operatsion samaradorlikni ta'minlash va xarajatlarni optimallashtirishga ham xizmat qiladi.

Shu sababli, chakana bank xizmatlarini strategik va odatiy mahsulotlarga ajratish, ularni zamonaviy raqamli va an'anaviy sotuv kanallari orqali mijozlarga yetkazish asosida bank daromadlarini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish tijorat banklari faoliyatida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, jismoniy shaxslarning iste'mol xarajatlari, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, oilaviy ehtiyojlarni qoplash yoki vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun tezkor moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabi mikroqarz xizmatlarining ahamiyatini oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jismoniy shaxslarga mikroqarzlarni ekspress kreditlash usuli orqali taklif etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Amalda tijorat banklarida mikroqarz ajratish jarayonlari ko'p bosqichli hujjatlashtirish, kredit arizalarini uzoq muddat ko'rib chiqish va mijoz to'lov qobiliyatini baholashning an'anaviy usullari bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Bu esa aholining tezkor moliyaviy ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish imkoniyatini cheklab, ayrim hollarda norasmiy moliyalashtirish manbalariga murojaat qilish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Ekspress kreditlash tizimi esa mikroqarz ajratish jarayonlarini avtomatlashtirish, qaror qabul qilish muddatini qisqartirish va kredit xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi (2-rasm).

2-rasm. O'zbekistonda aholiga berilgan mikroqarzlار summasi⁴, trln. so'm

2021–2025-yillarda O'zbekistonda aholiga ajratilgan mikroqarzlار hajmining barqaror va yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, mikroqarzlار hajmi 2021-yildagi 9,9 trln so'mdan 2025-yilga kelib 67,6 trln so'mga yetgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich qariyb 6,8 barobarga oshgan. Bu esa aholining qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotganini hamda tijorat banklarida chakana kreditlash xizmatlari faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Mikroqarzlار hajmining jadal o'sishi mamlakatda moliyaviy ommaboplik darajasining oshishi, raqamli bank xizmatlarining kengayishi, masofaviy bank operatsiyalari va onlayn moliyaviy platformalar rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, aholining tezkor moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda an'anaviy kredit ajratish mexanizmlari vaqt talab qilishi sababli mikroqarzlarni ekspress kreditlash usuli orqali ajratish zarurati ortib bormoqda.

³ Muallif ishlanmasi

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Ekspress kreditlash tizimi orqali banklar mijozning to'lov qobiliyatini raqamli skoring, bank aylanmalari, karta operatsiyalari va boshqa elektron ma'lumotlar asosida qisqa vaqt ichida baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kredit ajratish jarayonini soddalashtirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va aholiga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekspress kreditlash usuli banklarning chakana kredit bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va mijozlar sonini ko'paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq mikroqarzar portfelinig yuqori sur'atlarda o'sishi kredit risklari va aholining qarz yuki ortishi ehtimolini ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli ekspress kreditlash amaliyotini zamonaviy risk-menejment tizimlari, avtomatlashtirilgan skoring modellari va mas'uliyatli kreditlash tamoyillari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tijorat banklari uchun ham ekspress kreditlash tizimi muhim iqtisodiy samara beradi. Ushbu mexanizm orqali chakana kredit portfelini kengaytirish, foizli daromadlar hajmini oshirish, yangi mijozlarni jalb qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkin. Ayniqsa, fintex kompaniyalari va raqamli mikromoliya xizmatlari bilan raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tezkor kredit xizmatlarini joriy etish banklar uchun strategik ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ekspress kreditlash tizimi kredit ajratish jarayonlarini raqamlashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatish tezkorligini oshirish va mijozlar qoniqishini ta'minlash imkonini beradi. Natijada bank xizmatlarining sifati oshadi hamda chakana bank xizmatlari bozorida bankning pozitsiyasi mustahkamlanadi.

Jismoniy shaxslarga mikroqarzlarini ekspress kreditlash usuli orqali taklif etish aholining moliyaviy ehtiyojlarini tezkor qondirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, bank daromadlarini ko'paytirish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatida jismoniy shaxslar bilan bog'liq aktiv operatsiyalar, xususan, iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, mikroqarzarlar va boshqa chakana kreditlash xizmatlari bank aktivlari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Mazkur operatsiyalar banklarga yuqori foizli daromad keltirishi bilan birga, ma'lum darajada kredit risklarini ham yuzaga keltiradi. Shu bois jismoniy shaxslarga aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash zarurati tobora ortib bormoqda.

Amaliyotda ayrim tijorat banklarida chakana kreditlash hajmini jadal oshirishga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida kredit portfeli sifati va risk darajasini baholash masalalari yetarli darajada inobatga olinmasligi kuzatilmoqda. Bu esa muammoli kreditlar ulushining ortishi, aktivlar sifati pasayishi va bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, risklarni haddan tashqari cheklash esa kreditlash hajmini qisqartirib, bankning foizli daromadlarini kamaytiradi. Shu sababli risk, daromad va aktivlar sifati o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash, avvalo, kredit resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunda banklar yuqori daromadli, biroq risk darajasi yuqori bo'lgan operatsiyalar bilan past riskli, barqaror daromad keltiruvchi operatsiyalar o'rtasida maqbul nisbatni shakllantirishi zarur. Bu esa kredit portfelini diversifikatsiya qilish, mijozlarni segmentlash va risklarni baholashning zamonaviy usullaridan foydalanishni talab etadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va skoring tizimlarining rivojlanishi jismoniy shaxslar bo'yicha risklarni aniq baholash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mijozlarning moliyaviy holati, to'lov intizomi, kredit tarixi va pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish orqali kredit qarorlarining aniqligi oshadi. Bu esa bir vaqtning o'zida ham aktivlar sifati, ham bank daromadlilikini ta'minlashga xizmat qiladi.

Risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki muammoli aktivlar ulushining ortishi bank kapitali va likvid mablag'lariga bosim o'tkazadi, bu esa bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xavf tug'diradi. Shu nuqtayi nazardan, aktiv operatsiyalarda risklarni samarali boshqarish va aktivlar sifati monitoringini kuchaytirish bank faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, jismoniy shaxslarga aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash mijozlar bilan barqaror munosabatlarni shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mijozlarning real to'lov qobiliyatiga mos kredit mahsulotlarini taklif qilish orqali ortiqcha qarz yukining oldi olinadi va kredit qaytimi intizomi yaxshilanadi.

Shu sababli, jismoniy shaxslarga aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash bank aktivlari sifatini oshirish, foizli daromadlarni barqaror shakllantirish, kredit risklarini minimallashtirish va tijorat banklarining raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda tijorat banklarining chakana bank xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi, avvalo, aholiga taqdim etilayotgan xizmatlarning tezkorligi, raqamlashtirilganligi, qulayligi va mijoz ehtiyojlariga moslashganlik darajasi bilan belgilanmoqda.

Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida valyuta operatsiyalari bo'yicha zamonaviy to'lov instrumentlarining yetarli emasligi, bank mahsulotlarini strategik va odatiy segmentlarga ajratish amaliyotining to'liq shakllanmaganligi, mikroqarz ajratish jarayonlarida ekspress kreditlash mexanizmlarining cheklanganligi hamda aktiv operatsiyalarda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash mexanizmlarining takomillashmaganligi chakana bank xizmatlari samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida ko'p valyutada ishlovchi UZS+USD, UZS+EUR va UZS+CNY formatdagi multivalyutali bank kartalarini keng joriy qilish aholining xalqaro hisob-kitoblarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va banklarning komissiyali daromadlarini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, chakana bank mahsulotlarini strategik va odatiy mahsulotlarga ajratish hamda ularni mobil ilovalar, internet-banking, telemarketing, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali sotish mexanizmlarini takomillashtirish banklarning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va mijozlar bazasini kengaytirish imkonini berishi aniqlandi.

2021–2025-yillarda aholiga berilgan mikroqarzlarning hajmining 9,9 trln so'mdan 67,6 trln so'mgacha o'sishi aholining tezkor moliyaviy resurslarga bo'lgan talabining ortib borayotganini ko'rsatdi. Mazkur holat mikroqarzlarni ekspress kreditlash usuli orqali ajratish zaruratini kuchaytirmoqda. Ekspress kreditlash tizimi raqamli skoring va avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlari orqali kredit ajratish muddatini qisqartirish, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va banklarning chakana kredit bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi.

Tadqiqot natijalari jismoniy shaxslarga aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda risk–daromad–sifat muvozanatini ta'minlash banklarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar sifati va foizli daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Bu esa zamonaviy risk-menejment, raqamli skoring va kredit portfelini diversifikatsiya qilish mexanizmlarini keng joriy etishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti (2025)
3. Xudayarova X.A. (2019) «O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish» mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferati
4. Mamadiyarov Z.T. (2018) «Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish» mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferati
5. Abdullaeva Sh.Z., Xudoyberganova Z.Z. (2021) Bank krediti va xizmatlari. / Monografiya
6. Brett King (2018) Bank 4.0: Banking everywhere, never at a bank
7. Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P. (2016) Bankovskoe delo. Organizatsiya deyatelnosti kommercheskogo banka
8. Lavrushin O.I. (2015) Novie modeli bankovskoy deyatelnosti v sovremennoy ekonomike/ monografiya
9. Peter S. Rose, Sylvia C. Hudgins (2019) Bank Management & Financial Services
10. Philip Kotler, Kevin Lane Keller (2024) Marketing management.
11. Mishkin F. (2022). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson.
12. Timothy W. Koch and S. Scott MacDonald (2014) Bank Management.
13. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>